ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDA AXLOQIY-ETIK QADRIYATLAR TAHLILI

Qodirova Xurshida Maqsudbek qizi
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Pedagogika va filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek xalq ertaklarida mujassam topgan axloqiy-etik qadriyatlar tizimi tahlil qilinadi. Ertaklar xalqning qadimiy ma’naviy merosi sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, tarbiyaviy va axloqiy funksiyaga ega og‘zaki badiiy janrdir. Mazkur ilmiy ishda aynan xalq ertaklarida aks etgan halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzt, yolg‘on va hiylaga nisbatan salbiy munosabat kabi asosiy axloqiy g‘oyalarning ifodalanish uslublari tahlil etiladi. Shuningdek, ertak qahramonlarining xatti-harakatlari orqali axloqiy me’yorlarning qanday targ‘ib qilinishi o‘rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – xalq og‘zaki ijodining bolalar va yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini aniqlash, ertaklar orqali milliy qadriyatlar qanday uzatilganini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari o‘zbek xalqining axloqiy tafakkuri va ma’naviy-ma’rifiy an’analarining shakllanishi jarayonini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq ertaklari, axloqiy qadriyatlar, etik me’yorlar, xalq og‘zaki ijodi, badiiy obraz, ertak qahramoni, ma’naviy meros.

Аннотация: В данной статье проводится анализ системы нравственно-этических ценностей, отражённых в узбекских народных сказках. Сказки, являясь частью устного народного творчества, испокон веков служат средством передачи культурных и духовных норм из поколения в поколение. В исследовании рассматриваются такие ценности, как честность, трудолюбие, терпение, уважение к старшим, забота о младших, а также отрицательное отношение к лжи и хитрости. Цель статьи — выявить воспитательную функцию народных сказок и показать их роль в формировании нравственного сознания молодого поколения. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию морально-этического мировоззрения узбекского народа и значимости фольклора в духовно-нравственном воспитании.

Ключевые слова: узбекская народная сказка, нравственная ценность, этическая норма, устная традиция, литературная героиня, духовная наследственность.

Abstract: This article analyzes the system of moral and ethical values reflected in Uzbek folk tales. As a part of oral folk literature, fairy tales serve as a vital tool for the transmission of cultural, spiritual, and ethical norms from generation to generation. The research focuses on how values such as honesty, hard work, patience, respect for elders, compassion for the young, and condemnation of deceit are portrayed through characters and plots in traditional tales. The aim of the study is to reveal the educational role of folk tales in shaping moral consciousness and preserving national values in the minds of young generations. The findings contribute to a deeper understanding of the Uzbek people’s ethical worldview and the role of folklore in moral upbringing.

Key words: Uzbek folk tales, moral values, ethical norms, oral folklore, literary character, spiritual heritage.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-5, ISSUE-6

Har bir xalqning ma’naviy-ma’rifiy hayoti uning og‘zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu meros avlodlar orasida axloqiy va estetik qadriyatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqining og‘zaki ijodi, xususan ertaklar, asrlar davomida xalqning turmush tarzini, orzu-umidlarini, axloqiy qarashlarini o‘zida aks ettirib kelgan. Ertaklar nafaqat bolalar uchun mo‘ljallangan ko‘ngilochar asarlar, balki ularda jamiyat tomonidan qadrlanadigan xulq-atvor me’yorlari, hayotiy saboqlar va axloqiy tamoyillar mujassamdir. Mazkur tadqiqotda o‘zbek xalq ertaklarida ifodalangan axloqiy-etik qadriyatlar tizimi tahlil qilinadi. Jumladan, halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, olijanoblik, kibr va hiylaga qarshi kurashish kabi g‘oyalar qahramonlar timsolida qanday badiiy ifodasini topgani o‘rganiladi. Ertaklar orqali axloqiy me’yorlarning bolalar ongiga qanday singdirilishi, ularning tarbiyaviy ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va axborot xurujlari davrida milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda xalq ertaklarining ahamiyati yana-da ortmoqda. Maqolaning maqsadi – xalq ertaklaridagi axloqiy-etik g‘oyalarni ilmiy tahlil asosida yoritish, ularning tarbiyaviy va ma’naviy jihatdan qanday xizmat qilishini ko‘rsatib berishdir.

O‘zbek xalq ertaklari turli davrlarda folklorshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularda mujassam axloqiy-etik qadriyatlarning tizimli tahliliga doimiy ravishda e’tibor qaratilgan emas. Jumladan, O. Yoqubov, H. Zohidov, A. Hayitmetov, N. Komilov, Sh. Turdiyev, M. Juraev kabi olimlar xalq og‘zaki ijodining janrlari, estetik xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyati haqida muhim ilmiy asarlar yaratganlar. Ammo aynan ertaklardagi axloqiy me’yorlar, xulq-atvor standartlari va ularning bolalar ongiga ta’siri haqida tahliliy maqolalar soni cheklangan. Shu bois, mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishda mavjud bo‘lgan ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Ertaklardagi tadqiqotlarda quyidagi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi:

T/r	Metod nomlari:	Vazifalari
1	Tahliliy-uslubiy metod	– xalq ertaklari matnlaridagi axloqiy-etik g‘oyalarning badiiy ifodasi tahlil qilindi
2	Taqqoslash metodi	– turli ertaklarda uchraydigan axloqiy qadriyatlar qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi
3	Tarixiy yondashuv	– ertaklarning yaratilgan davri va ijtimoiy-falsafiy manzarasi hisobga olinib, undagi axloqiy mazmun o‘rganildi
4	Tarbiyaviy yondashuv	– ertaklar orqali bolalar ongiga singdiriladigan axloqiy tushunchalarning ma’naviy-ta’limiy qiymati baholandi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-5, ISSUE-6

5	Matnshunoslik asoslari	– konkret ertak matnlari (masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Boy ota va kambag‘al ota”) lingvopoetik va g‘oyaviy jihatdan tahlil etildi.

O‘zbek xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining muhim janri sifatida folklorshunos olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan o‘rganib kelingan. Xususan, O. Yoqubov, H. Zohidov, A. Hayitmetov, N. Komilov, M. Juraev, Sh. Turdiyev kabi olimlar o‘z asarlarida ertaklarning badiiy xususiyatlari, janr tasnifi, poetikasi va tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratganlar. Shuningdek, N. Mahmudov va M. Xudoyqulovlarning ilmiy ishlarida ertaklarning bola ongiga ko‘rsatadigan ta’siri va axloqiy g‘oyalarning shakllanishidagi roli tilga olingan. Biroq ushbu ertaklarda mujassam bo‘lgan axloqiy-etik qadriyatlar tizimi, ularning badiiy obrazlar orqali berilishi, hamda ertaklardagi axloqiy me’yorlarning milliy tarbiya bilan uzviy aloqasi hali to‘liq va tizimli ravishda tadqiq etilmagan. Ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklarini tarbiyaviy-axloqiy kontekstda keng ko‘lamda ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O‘zbek xalq ertaklari asrlar davomida shakllangan xalq tafakkuri mahsuli bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlar, hayotiy qadriyatlar, yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg‘on o‘rtasidagi kurash obrazlar orqali badiiy ifodasini topgan. Aynan shu jihatlari bilan ertaklar yosh avlod tarbiyasida, ularga hayotiy saboqlar berishda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek ertaklarda turli g‘oyaviy qadriyatlar mavjud:

1. Halollik va rostgo‘ylik qadriyati

Halollik o‘zbek xalq ertaklarining asosiy axloqiy g‘oyalaridan biridir. “Zumrad va Qimmat” ertagida qizlardan biri (Zumrad) mehnatkash, itoatkor, halol bo‘lsa, ikkinchisi (Qimmat) yalqov, beodob va ochko‘z qilib tasvirlanadi. Natijada, halol mehnat qilgan Zumrad baxtga erishadi, Qimmat esa o‘z xatti-harakatlari oqibatida jazolanadi. Bu orqali ertak tinglovchisida halollik va sabrning oxiri yaxshilikka olib kelishi haqidagi tasavvur mustahkamlanadi.

2. Mehnatsevarlik va sabr-toqat

“Boy ota va kambag‘al ota” ertagida ikki farzandning taqdirlari orqali mehnatga munosabat ochib beriladi. Kambag‘al otaning o‘g‘li sabr bilan mehnat qilib, halol yo‘l bilan rizq topadi, boyning o‘g‘li esa manman, erkatoy va dangasa qilib ko‘rsatiladi. Bu ertakda mehnatsevarlik — asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi.

3. Kattalarga hurmat va kattadan kichikka g‘amxo‘rlik

Ko‘plab ertaklarda oilaviy qadriyatlar, ayniqsa, ota-onaga hurmat, kichiklarga mehr-muruvvat mavzusi ko‘tariladi. “Otinoyining o‘g‘li” ertagida onasiga yaxshi muomala qilgan farzand oxir-oqibat omadga erishadi, g‘animatga erishadi. Bu orqali farzandlik burchi, mehr-oqibatga sadoqat singari tushunchalar targ‘ib qilinadi.

4. Yolg‘on va hiylaga nisbatan salbiy munosabat

“Tulkining hiylasi” ertagida tulki — yolg‘onchi, makkor, boshqalarga zarar yetkazuvchi obraz sifatida gavdalanadi. Biroq hikoya oxirida u o‘z hiylasining qurboni bo‘ladi. Bu orqali ertak axloqiy g‘oyani — yolg‘onning oxiri fojia bilan tugashini, hiyla bilan uzoqqa borib bo‘lmasligini bolalar ongiga singdiradi.

5. Adolat va yaxshilik ustuvorligi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-6

O‘zbek xalq ertaklarining aksarida adolatli kuchlar g‘alaba qiladi, yomonlik jazolanadi. Bu tamoyil axloqiy qadriyat sifatida ertaklar orqali mustahkamlanadi. Bu kabi syujetlar bolalarda adolatga ishonch, ezgulikka intilish hissini shakllantiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki o‘zbek xalq ertaklari xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy qarashlari, hayotiy tajribasi va tarbiyaviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan noyob og‘zaki ijod namunalari hisoblanadi. Mazkur maqolada xalq ertaklarida aks etgan axloqiy-etik g‘oyalar – halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat, rostgo‘ylik, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, hiylaga nisbatan salbiy munosabat kabi qadriyatlar tahlil qilindi. Ertaklar qahramonlarining xatti-harakatlari orqali ushbu qadriyatlarning badiiy ifodalanishi, voqealarning rivoji va yakuni orqali axloqiy saboqlarning qanday berilishi o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ertaklar faqatgina ko‘ngilochar emas, balki kuchli tarbiyaviy vosita bo‘lib, yosh avlodda axloqiy ong va milliy qarashlarni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ertaklardagi obrazlar, frazeologik birliklar, ramziy ma’nolar va mifonimlar orqali xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, hayot falsafasi ifoda etilgan. Bu esa ertaklarni zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimida samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Demak, o‘zbek xalq ertaklari nafaqat milliy madaniyatning ajralmas qismi, balki axloqiy-etik tarbiyaning muhim omili sifatida o‘rganilishi va qadrlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., O‘zbek folklori. Darslik, Toshkent, 2020
2. Rasulov, T., “O‘zbek xalq ertaklari: Tahlil va talqin.” Toshkent: 2005. Ma’naviyat.
3. Qodirov, M., “O‘zbek folklori va milliy qadriyatlar.” Toshkent, 2010.
4. Yuldasheva, S., “Ertak dunyosi: bolalar tarbiyasida an’anaviy qadriyatlar.” Samarqand nashriyoti. Samarqand, 2018.
5. “O‘zbek xalq ertaklari” (10 jildlik). G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. Toshkent